

“TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR” FANINING ELEKTRON O‘QUV USLUBIY MAJMUASINI YARATISH

Ruziyeva H.Sh., Shodmonov D.A., Turdibekova M.O.

** Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti
akademik litseyi informatika fani o‘qituvchisi*

***TATU SF “Raqamli va ta’lim texnologiyalari”
kafedrası katta o‘qituvchisi
shodmonovd1985@gmail.com*

****TATU SF 2-bosqich talabasi*

Аннотация: В данной статье рассматривается тема «Внедрение цифровых технологий в образование и создание электронного учебно-методического комплекса», в которой проанализированы роль современных информационно-коммуникационных технологий в системе образования, их значение для повышения эффективности обучения, а также роль электронных образовательных ресурсов.

Abstract: This article is dedicated to the topic "Implementation of Digital Technologies in Education and the Development of an Electronic Educational-Methodical Complex". It analyzes the role of modern information and communication technologies in the education system, their importance in increasing learning efficiency, and the role of electronic educational resources.

Kalit soʻzlar: Raqamli texnologiyalar, ta’lim, elektron ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn ta’lim, ta’lim platformasi, o‘quv jarayoni, elektron resurslar, o‘quv-uslubiy majmua, foydalanuvchi interfeysi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida, “Barchangiz guvohsiz, bugun zamon shiddat bilan o‘zgarib, barcha sohalar qatori ta’lim tizimi oldiga ham o‘ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda, biz dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yaratishimiz zarur. Shu maqsadda, avvalo, ta’lim maskanlarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, soha xodimlarining ish haqini bosqichma-bosqich oshirib borish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash bundan buyon ham doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi”, deganlar.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va samarali qo'llash zaruriyatidan kelib chiqadi. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalar o'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali va interaktiv tarzda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olishda innovatsion metodlardan foydalanishni ta'minlash va ularning raqamli savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, uning ta'limda samarali qo'llanishi va o'qituvchilarga yangi pedagogik yondoshuvlar, uslublar va metodlarni o'rganish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Ta'limda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va qo'llash, o'qituvchilar va o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, ta'lim sifatini yanada yaxshilash maqsadida bunday mavzuga e'tibor qaratish juda dolzarbdir.

Bizning loyahaning maqsadi ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning usul va metodlarini o'rganish, elektron o'quv majmuasini yaratish jarayonida yuzaga keladigan texnik va pedagogik masalalarni aniqlash va ular asosida yangi ta'lim platformasini yaratishdir. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodologik asoslarini ishlab chiqish, o'quv jarayonini yanada samarali qilish, o'quvchilarni yangi bilimlar olishga rag'batlantirish, shuningdek, o'qituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratish — bu ishning asosiy maqsadidir.

Loyahani amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini o'rganish.

Bu vazifa orqali ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning roli va ta'lim jarayonidagi samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'limda raqamli texnologiyalarni kengaytirish borasidagi tashabbuslari bilan tanishish. Ta'limda raqamli texnologiyalarning innovatsion yondashuvlar va metodologiyalar bilan uyg'unlashishini o'rganish.

2. Elektron o'quv majmuasini yaratish texnologiyalarini tahlil qilish.

Elektron o'quv majmuasining yaratish jarayonini batafsil o'rganish va shu jarayondagi texnik jihatlar, ishlash prinsiplarini, interaktiv elementlar va platformalarning imkoniyatlarini tahlil qilish. Bu vazifa orqali ta'limda elektron platformalarni yaratishning usul va metodlarini aniqlash, ularni amaliyotga joriy qilish uchun zarur bo'lgan texnik talablarga javob beradigan tizimlarni ishlab chiqish.

3. Veb-sayt yaratish va uning foydalanuvchi interfeysini ishlab chiqish.

Elektron o'quv majmuasini veb-sayt shaklida taqdim etish uchun saytning dizaynini, foydalanuvchi interfeysini va uning funksiyalarini yaratish. Veb-saytning ishlashini optimallashtirish, foydalanuvchilarga qulaylik yaratish va ularning ta'lim jarayonida samarali foydalanishi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqish. Bu vazifa yordamida, o'quvchilarning va o'qituvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan foydalanuvchi interfeysini yaratish maqsad qilingan.

4. Onlayn ta'lim platformalarining texnik jihatlarini va funksiyalarini tahlil qilish.

Onlayn ta'lim platformalarining texnik jihatlarini, ularning imkoniyatlarini va funksiyalarini tahlil qilish, shu bilan birga, platformalar o'quvchilarga qanday xizmatlar taqdim etishini o'rganish. Testlar, video darslar, forumlar, interaktiv mashqlar kabi o'quv elementlari yordamida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash.

5. Interaktiv elementlar va testlar orqali o'quvchilarning bilim darajasini baholash.

O'quv jarayonida interaktiv elementlar va testlarni qo'llash, ularni o'quvchilarning bilim darajasini baholash, bilimlarni mustahkamlash va o'quvchilarga o'z-o'zini baholash imkoniyatini yaratish. Bu vazifa orqali o'quvchilarni baholash tizimining samaradorligini oshirish va baholash jarayonini avtomatlashtirish.

6. Elektron o'quv majmuasining foydalanuvchi ehtiyojlariga mosligini tahlil qilish.

Yaratilayotgan elektron o'quv majmuasining foydalanuvchi ehtiyojlariga qanday mos kelishini va ta'lim tizimining talablariga javob berishini aniqlash. O'quvchilar va o'qituvchilarning ehtiyojlarini o'rganish va ularning talablariga javob beradigan platformani yaratish.

Zamonaviy ta'limda raqamli resurslardan samarali foydalanish talablari ortib borayotgan bir paytda, elektron o'quv-uslubiy majmualar (EO'UM) ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Mazkur EO'UM aynan "Raqamli ta'lim texnologiyalari" fani doirasida bilim beruvchi va mustahkamlovchi manba sifatida ishlab chiqilgan.

Majmua, eng avvalo, pedagogika yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavriat talabalari, maktab va kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar hamda o'z bilimini mustaqil ravishda oshirmoqchi bo'lgan o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan.

Asosiy maqsad – raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishda o'quvchilarga zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, o'qituvchilarga interaktiv darslarni tashkil etishda yordam beruvchi vizual va metodik materiallar taqdim etishdir.


Bu EO'UM o'quv dasturining asosiy mavzularini qamrab olgan holda, foydalanuvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish, mustaqil ishlash va masofaviy ta'limda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Shu tariqa, u zamonaviy o'qitish modeliga mos, qulay, ochiq va hamma uchun foydalanish mumkin bo'lgan raqamli resurs vazifasini bajaradi.

Majmua tarkibi – darslar, testlar, video materiallar, qo'llanmalar, slaydlar.

Elektron o'quv-uslubiy majmua o'zining tarkibi jihatidan foydalanuvchilarga qulaylik yaratish, ta'lim jarayonining har bir bosqichida zarur materiallar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Nazariy materiallar (darslar):

Har bir mavzuga doir nazariy materiallar aniq, sodda va tushunarli tarzda bayon qilingan. Ular mavzu mohiyatini chuqur ochib berishga xizmat qiladi. Har bir dars matni muayyan o'quv maqsadlariga asoslangan bo'lib, mavzular ketma-ketlikda va mantiqiy izchillikda berilgan.



1-rasm. Nazariy materiallar

2. Testlar va mustahkamlash mashqlari:

Mavzularni mustahkamlash va o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida turli formatdagi (yopiq, ochiq, moslashtirish, juftlik tanlash) test topshiriqlari ishlab chiqilgan. Ular foydalanuvchilarga o'z bilimlarini baholash va kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi.



2-rasm. Testlar va mustahkamlash mashqlari

3. Video materiallar:

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida turli mavzularga oid video darslar joylashtirilgan. Ushbu videolar orqali foydalanuvchilar vizual tarzda jarayonni kuzatib, tushunmagan jihatlarni qayta ko'rish imkoniga ega bo'ladilar.



3-rasm. Video ma'ruzalar.

4. Metodik qo'llanmalar:

O'qituvchilar uchun maxsus tayyorlangan metodik tavsiyalar, dars rejasi namunasi, foydalanish usullari va interfaol metodlar bo'yicha qo'llanmalar mavjud. Bu resurslar darslarni samarali tashkil etishda katta yordam beradi.

5. Slaydlar va taqdimotlar:

Har bir mavzuga oid tayyor slaydlar majmuasi ham kiritilgan bo'lib, ular dars jarayonida vizual vosita sifatida foydalaniladi. Bu taqdimotlar mavzuni yoritishda o'quvchilar e'tiborini jalb qilishga xizmat qiladi.

Ushbu komponentlarning barchasi yagona majmua tarkibida tizimli tarzda taqdim etilishi, o'quv jarayonining interaktivligini, foydalanish qulayligini va natijaviyligini oshiradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi, ularning samarali qo'llanilishi, xorijiy va mahalliy tajribalar asosida o'quv-uslubiy majmua shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilindi. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining har bir sohada, xususan ta'limda keng ko'lamda qo'llanilayotgani sababli, ushbu mavzu dolzarb va strategik ahamiyat kasb etadi.

Yaratilgan veb-sayt dizayni foydalanuvchilarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, o'quv jarayonining qulayligi va interaktivligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, natijada elektron o'quv-uslubiy majmuadan foydalanish samaradorligi oshadi. Bu platforma o'qituvchilar uchun darsni samarali tashkil etish, o'quvchilar uchun esa o'zlashtirish darajasini oshirish, mustaqil o'rganish va bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, yaratilgan raqamli platforma nafaqat zamonaviy ta'limga mos, balki kelajakda kengaytirish, yangilash, integratsiya qilish imkoniyatiga ega ochiq tizim hisoblanadi. Bu esa ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шодмонов Д. А. Внедрение цифровых технологий в образование и новые информационные инструменты //Иновационная наука. – 2023. – №. 4-2. – С. 156-159.
2. Шодмонов Д. А. Система формирования профессиональной компетентности выпускников по техническим специальностям //Мир педагогики и психологии. – 2019. – №. 3. – С. 120-125.